YOSHLAR O‘RTASIDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI KENG TARG‘IB ETISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK VA TASHKILIY ASOSLARI

Beknazarov Xurshid Qaxramonovich

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada yoshlar o‘rtasida o‘zbek xalq cholg‘ularini ommalashtirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, milliy musiqa merosini avloddan avlodga yetkazishning zamonaviy imkoniyatlari. Shuningdek, milliy cholg‘u ijrochiligini ommaviylashtirishda to‘garaklar faoliyatini takomillashtirish, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish va yoshlarning mustaqil ijrochilik faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq cholg‘ulari, yoshlar, musiqa merosi, cholg‘u ijrochiligi, musiqa ta’limi, milliy qadriyatlar, musiqiy to‘garaklar.

Аннатоция: В статье рассматривается социально-педагогическое значение популяризации узбекских народных музыкальных инструментов среди молодёжи, а также современные возможности передачи национального музыкального наследия от поколения к поколению. Кроме того, выдвигаются практические предложения по совершенствованию деятельности кружков, использованию цифровых образовательных ресурсов и стимулированию самостоятельной исполнительской деятельности молодёжи в целях популяризации игры на национальных музыкальных инструментах.

Ключевые слова: узбекские народные музыкальные инструменты, молодёжь, музыкальное наследие, инструментальное исполнительство,

музыкальное образование, национальные ценности, музыкальные кружки.

Abstract: The article examines the socio-pedagogical significance of popularizing Uzbek folk musical instruments among young people, as well as contemporary opportunities for transmitting the national musical heritage from one generation to the next. It also puts forward practical recommendations for improving the activities of extracurricular music clubs, utilizing digital educational resources, and encouraging young people to engage in independent musical performance in order to promote the practice of playing traditional Uzbek musical instruments.

Keywords: Uzbek folk musical instruments, youth, musical heritage, instrumental performance, music education, national values, music clubs.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyosini boyitish hamda milliy madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, har bir xalqning milliy o‘zligi, tarixi, urf-odatlari va ma’naviy qiyofasi, eng avvalo, uning madaniyati va san’atida o‘z ifodasini topadi.

Musiqa san’ati inson ma’naviyatini yuksaltirish, estetik didini shakllantirish, hissiy olamini boyitish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, milliy musiqa san’atining ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek xalq cholg‘ulari xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, boy ijrochilik an’analari, milliy tafakkuri va badiiy dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi.

O‘zbek xalq cholg‘ularini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish bugungi madaniy-ma’rifiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Biroq milliy cholg‘ularning madaniy ahamiyatini e’tirof etishning o‘zi ularning yoshlar orasida ommalashishi uchun yetarli emas. Buning uchun ularni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish, ijrochilikni zamonaviy ta’lim muhiti bilan bog‘lash va yoshlarning bevosita ishtirokini

ta’minlaydigan tashkiliy mexanizmlarni shakllantirish zarur. Ayni paytda yoshlarning ta’limga bo‘lgan qiziqishlarida axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, aniq fanlar va zamonaviy kasblarning ulushi ortib bormoqda. Bu tabiiy jarayon bo‘lib, zamonaviy mehnat bozori talablari bilan izohlanadi. Biroq intellektual rivojlanish bilan musiqiy va madaniy tarbiyani bir-biriga muqobil yo‘nalishlar sifatida qarash to‘g‘ri emas. Aksincha, ularning o‘zaro uyg‘unligi yoshlarning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, milliy musiqa merosini asrab-avaylash hamda yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirishga qaratilgan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-112-son qarori milliy musiqa cholg‘ularini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Mazkur qarorda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalarini o‘rgatish vazifasi belgilangan. Shuningdek, musiqa fani o‘qituvchilarining kamida uchta milliy cholg‘uda kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lishi bo‘yicha talablar nazarda tutilgan. Qarorda dutor, do‘mbira, doira, tanbur, rubob, g‘ijjak va nay kabi cholg‘ularga alohida o‘rin berilgan [1].

Ushbu hujjatning muhim jihati shundaki, milliy musiqa cholg‘ularini o‘rgatish ta’lim jarayonidagi amaliy faoliyat bilan bog‘langan. YA’ni o‘quvchi milliy cholg‘ular haqida ma’lumot olish bilan cheklanmasdan, ulardan birida mustaqil ravishda kuy ijro etishga ham yo‘naltiriladi.

Milliy cholg‘ular ijrochiligini keng targ‘ib etish jarayonida, birinchi navbatda, ta’lim muassasalaridagi imkoniyatlardan foydalanish darajasiga e’tibor qaratish lozim. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi asosan o‘quv dasturlari doirasida amalga oshiriladi. Biroq barcha maktablarda milliy



cholg‘ularni chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilgan doimiy amaliy to‘garaklar mavjud, deb bo‘lmaydi. Ayrim hollarda mashg‘ulotlar uchun zarur cholg‘ularning yetishmasligi, maxsus xonalarning ajratilmaganligi yoki ijrochilik mahoratiga ega pedagoglarning kamligi bunga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi muammo – musiqa ta’limi yo‘nalishidagi kadrlar tayyorlash va ularning amaliy salohiyati bilan bog‘liq. Milliy cholg‘ularni o‘rgatish uchun pedagog nafaqat muayyan cholg‘uda kuy ijro eta olishi, balki uning ijro texnikasini bosqichma-bosqich tushuntirishi, boshlang‘ich mashqlarni tanlashi va o‘quvchida mustaqil mashg‘ulot olib borish ko‘nikmasini shakllantirishi kerak. Shu bois pedagogning ijrochilik mahorati bilan metodik tayyorgarligi o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarur.

Uchinchi muammo oliy ta’lim muassasalari va madaniyat markazlaridagi to‘garaklar faoliyatiga taalluqli. Milliy cholg‘ularni o‘rganish faqat bolalik davriga xos mashg‘ulot sifatida qaralmasligi lozim. Talabalar va ishlayotgan yoshlar ham o‘z qiziqishlariga muvofiq milliy cholg‘ularni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun madaniyat markazlari, mahallalar va oliy ta’lim muassasalarida havaskorlik asosidagi ijrochilik guruhlari faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi muammo milliy cholg‘ular haqidagi ma’lumotlarni yoshlarga yetkazish shakllari bilan bog‘liq. Zamonaviy yoshlar axborotni ko‘proq raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va videomateriallar orqali qabul qilmoqda. Agar milliy cholg‘ular haqidagi ma’lumotlar faqat an’anaviy amaliy, ma’ruza va nazariy tushuntirishlar bilan cheklansa, ularning qiziqishini barqaror saqlash qiyinlashishi mumkin.

Shuning uchun milliy cholg‘ularning ijro imkoniyatlarini qisqa videolavhalar, mahorat darslari, virtual ko‘rgazmalar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali namoyish etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi muammo yoshlarning ijrochilik natijalarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq. Agar to‘garak faoliyati faqat mashq qilish va belgilangan kuylarni takrorlashdan iborat bo‘lib qolsa, ishtirokchilarning qiziqishi pasayishi mumkin. Shu bois ularning o‘z ijrolarini namoyish etishi, ansambllarda ishtirok etishi va ijodiy tanlovlarda qatnashishi uchun sharoit yaratish lozim.

Mazkur muammolarning yechimi milliy cholg‘ular ijrochiligini ta’limning turli bosqichlari va madaniy-ma’rifiy faoliyat bilan bog‘liq holda tashkil etishni talab qiladi.

Avvalo, bolalar musiqa va san’at maktablarida cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha mavjud ta’lim imkoniyatlarini umumiy targ‘ibot tadbirlari bilan to‘ldirish zarur. Masalan, umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun ochiq mashg‘ulotlar, maxorat darslari va ijodiy uchrashuvlar o‘tkazilishi ularda muayyan cholg‘uga nisbatan dastlabki qiziqishni shakllantiradi.

Umumta’lim maktablarida esa musiqa darslarini to‘garak mashg‘ulotlari bilan mazmunan bog‘lash maqsadga muvofiq. Darsda milliy cholg‘u haqida nazariy ma’lumot olgan o‘quvchi darsdan tashqari mashg‘ulotda uning ijro imkoniyatlarini amaliy o‘zlashtirishi mumkin. Bunday uzviylik nazariy bilimning amaliy ko‘nikmaga aylanishiga yordam beradi.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari va yoshlar ijodiyot markazlarida esa turli yoshdagi ishtirokchilar uchun darajalarga ajratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin. Bunda boshlang‘ich guruhlarda cholg‘u bilan tanishish, to‘g‘ri o‘tirish, cholg‘uni ushlash va oddiy ritmik mashqlar bajarishga e’tibor qaratiladi. Keyingi bosqichlarda milliy kuylarni ijro etish, jamoaviy musiqiy chiqishlar va ansambl faoliyatiga o‘tish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy cholg‘ular ijrochiligi bo‘yicha ixtiyoriy to‘garaklarni tashkil etish ham alohida ahamiyatga ega. Bunday to‘garaklar faqat musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Turli mutaxassisliklarda tahsil olayotgan yoshlarning milliy



cholg‘ularga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash milliy musiqa san’atining ijtimoiy qamrovini kengaytiradi.

Milliy cholg‘ularni ommalashtirishda yoshlarni faqat tayyor musiqiy mahsulot iste’molchisi sifatida emas, balki bevosita ijodiy jarayon ishtirokchisi sifatida shakllantirish muhimdir. Buning uchun ularning shaxsiy tashabbusi, mustaqil ijrosi va jamoaviy faoliyatini rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanish zarur.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarini ilgari surish mumkin.

1. “Milliy cholg‘ular bilan tanishuv” mahorat darslari. Ta’lim muassasalarida tajribali sozandalar ishtirokida cholg‘ularning tuzilishi, tovush hosil qilish xususiyatlari va ijro usullarini namoyish etishga qaratilgan mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bunday tadbirlar nazariy ma’lumotlarni jonli ijro bilan bog‘lash imkonini beradi.

2. “Yosh sozandalar” ijodiy maydoni. Maktablar, oliy ta’lim muassasalari va madaniyat markazlarida yosh ijrochilarning chiqishlarini tashkil etish, ularning ijrolarini videoga olib, raqamli platformalarda tarqatish mumkin. Bu yoshlarning o‘z qobiliyatini namoyon etishi va tengdoshlarida ham qiziqish uyg‘otishiga xizmat qiladi.

3. “Ustoz-shogird” an’anasi. Milliy ijrochilik maktablari va an’analarini saqlash maqsadida tajribali sozandalarni yoshlar bilan muntazam ishlashga jalb etish lozim. Bunda shogird faqat kuyni takrorlashni emas, balki ijro uslubi, bezaklar, ritmik xususiyatlar va an’anaviy talqinni ham o‘zlashtiradi.

4. Raqamli milliy musiqa resurslari. Har bir milliy cholg‘u bo‘yicha qisqa videodarslar, ijro namunalari, boshlang‘ich mashqlar va metodik tavsiyalarni jamlagan elektron resurslar bazasini yaratish maqsadga muvofiq. Bu, ayniqsa, malakali mutaxassislar yetishmaydigan hududlarda pedagog va o‘quvchilar uchun qo‘shimcha ta’lim manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek xalq cholg‘ularini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish masalasi faqat musiqiy bilim berish yoki ijrochilik mahoratini shakllantirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon milliy madaniy merosning davomiyligini ta’minlash, yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va ularning ma’naviy dunyosini boyitish bilan bog‘liq kompleks vazifadir.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligi, eng avvalo, milliy cholg‘ularni o‘rganish uchun mavjud imkoniyatlarning yoshlar hayotiga qanchalik yaqinlashtirilganiga bog‘liq. Agar milliy cholg‘u faqat bayram tadbirlari yoki muayyan fan mashg‘ulotlari doirasida namoyon bo‘lsa, uning yoshlar kundalik hayotidagi o‘rni cheklanganligicha qoladi. Shu bois ijrochilikni ta’lim muassasalari, madaniyat markazlari, mahallalar va raqamli muhitda muntazam amalga oshiriladigan faoliyatga aylantirish zarur.

O‘zbek xalq cholg‘ularini yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirishga qaratilgan tashabbuslarni tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlash, ularning ijrochilik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish va milliy musiqa san’atini zamonaviy avlodning ma’naviy ehtiyojiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, milliy cholg‘ularning kelajagi ularning nechta muzeyda saqlanayotgani bilangina emas, balki nechta yoshning qo‘lida yangrayotgani bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-112-son qarori. – https://lex.uz/uz/acts/5849580

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.

4. Toshmatov O‘., Beknazarov X. “Cholg‘ushunoslik” darslik. Toshkent: “To‘ron-Iqbol” nashriyoti 2018.160 b.

5. Beknazarov X. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy kompetentligini o‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent: O‘zDSMI, 2026. – 48 b.

6. Beknazarov K. DEVELOPING MUSIC COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS THROUGH NATIONAL INSTRUMENTS //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2025. – S. 107-113.